



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# **FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR**

**III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

**2025-yil, 21-OKTABR**

**BUXORO – 2025**

## ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- |     |                |                                                                                                      |
|-----|----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | B.B. Ma'murov  | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;                                                  |
| 2.  | Z.M. Muqimov   | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;                                   |
| 3.  | G.R. Akramova  | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4.  | X.A. Xaitov    | - Tillar fakulteti dekani, a'zo;                                                                     |
| 6.  | U.S.Amonov     | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;                                                   |
| 7.  | D.B.Axmedova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                               |
| 8.  | G.B.Rustamova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 9.  | G.R.Mirxanova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 10. | R.A.Saidova    | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                                 |
| 11. | Y.U.Nurova     | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 13. | N.H.Hojiyeva   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                                 |
| 14. | M.U.Usmonova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;                                       |
| 15. | N.A.Bafoyeva   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                             |
| 16. | N.O. Avazova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                             |
| 17. | S.T. Latipova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo                                              |

## ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- |     |                 |                                                                                             |
|-----|-----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | M.M. Bafayev    | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais;                                                   |
| 2.  | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3.  | U.S. Amonov     | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;                                          |
| 4.  | F.R.Rustamov    | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari                           |
| 5.  | L.F. Sharipova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                      |
| 6.  | M.Y. Ro'ziyeva  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;                                      |
| 7.  | Sh.M. Istamova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 8.  | M.B. Sharipova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 9.  | G.B. Rustamova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 10. | R.R. Xalilova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;                                        |
| 11. | M.U. Usmonova   | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;                                |
| 12. | F.K. Nurova     | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;                              |
| 13. | N.N. Mirjonov   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                    |
| 14. | M.Y. Latifova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                    |
| 15. | M.A. Tilavova   | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;                                    |
| 16. | M.V. Jabborova  | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo.                                    |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

### Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTI MASALALARI**

## PESHKO' TUMANI MIKROTOPONIMYASINING LINGVISTIK TADQIQI

Jo'rayeva Zuxroxon Yo'lchi qizi

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Peshko' tumani mikrotoponimiyasining lingvistik xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Unda tuman hududidagi mikrotoponimlarning etimologik, leksik va semantik tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot davomida toponimlarning kelib chiqish manbalari, tarixiy-madaniy omillar va xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning mahalliy dialekt, geografik sharoit va tarixiy jarayonlar bilan aloqasi yoritilgan. Maqola natijalari o'zbek toponimikasi va onomastikasini chuqur o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** mikrotoponimiya, Peshko' tumani, toponimika, etimologiya, semantika, onomastika, dialekt, geografik nomlar.

**Annotation:** This article presents a linguistic study of the microtoponymy of Peshko' district. It analyzes the etymological, lexical, and semantic features of local place names. The research explores the origins of these toponyms, their historical and cultural context, and their relation to oral folk traditions. Furthermore, the connection of microtoponyms with local dialects, geographical conditions, and historical developments is examined. The findings contribute significantly to the broader understanding of Uzbek toponymy and onomastics.

**Keywords:** microtoponymy, Peshko' district, toponymy, etymology, semantics, onomastics, dialect, geographical names.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются лингвистические особенности микротопонимии Пешкёского района. Проведён этимологический, лексический и семантический анализ местных географических названий. В исследовании освещены происхождение топонимов, их историко-культурный контекст и связь с народным устным творчеством. Также изучена зависимость микротопонимов от местных диалектов, географических условий и исторических процессов. Результаты исследования имеют важное значение для дальнейшего изучения узбекской топонимики и ономастики.

**Ключевые слова:** микротопонимия, Пешкёский район, топонимика, этимология, семантика, ономастика, диалект, географические названия.

Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan **toponimika** — xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va ijtimoiy hayotini o'zida aks ettiruvchi nomshunoslik sohasi hisoblanadi. Har bir xalqning tarixiy-madaniy merosini o'rganishda joy nomlari, ayniqsa mikrotoponimlar, alohida ilmiy qimmatga ega. Chunki ular nafaqat geografik obyektlarning nomini bildiradi, balki xalqning hayoti, tili, urf-odatları va dunyoqarashiga oid qadimiy ma'lumotlarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Mikrotoponimlar — bu nisbatan kichik hajmdagi tabiiy va antropogen obyektlarning nomlarini ifodalovchi leksik birliklar bo'lib, ular tildagi eng qadimiy qatlamlardan birini tashkil etadi. Shuning uchun mikrotoponimlarni o'rganish til tarixini, xalqning yashash joylari, etnik shakllanishi va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Peshko' tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili bu hududning tarixiy, madaniy va tabiiy xususiyatlarini aniqlashda ahamiyatlidir. Ushbu hududda shakllangan toponimlar o'zining fonetik, leksik va semantik jihatdan xilma-xil tuzilishi bilan ajralib turadi. Ularning etimologik tahlili orqali mahalliy aholi hayoti, tarixiy voqealar, tabiiy sharoit va madaniy aloqalar haqida muhim ma'lumotlar olish mumkin. Mazkur maqolada Peshko' tumani mikrotoponimiyasining lingvistik xususiyatlari — ularning kelib chiqishi, tuzilishi, semantik guruhlanishi hamda xalq og'zaki ijodi va dialekt bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan o'rganiladi.

Peshko' toponimi hozirgi kunda Buxoro viloyati hududida joylashgan bo'lib, bu nomning dastlabki shakli "Peshikuy" tarzida qo'llangan. Etimologik jihatdan "pesh" – old, oldingi qism, "kuy (kuy, qishloq)" esa aholi punkti, manzil ma'nosini bildiradi. Shu bois "Peshikuy" atamasi "tog' oldidagi qishloq" yoki "old qishloq" ma'nosini anglatgan. Vaqt o'tishi bilan fonetik o'zgarishlar natijasida "Peshikuy" shakli "Peshko' " ko'rinishiga o'zgargan. Mazkur toponim tildagi tarixiy-fonetik jarayonlar va xalq og'zaki nutqidagi tovush almashuvlari natijasida soddalashgan shaklda hozirgi ko'rinishga ega bo'lgan. Shu bilan birga, nomning semantik mohiyatida joyning geografik holati — ya'ni tog' etagida yoki balandlik oldida joylashgan manzil ekanligi aks etgan.

Peshko' tumani mikrotoponimlarining lingvistik tahlil qilar ekanmiz quyidagi joy nomlari e'tiborimizni tortdi:

Avdene toponimi "avdiya" yoki "avdi" ildizidan kelib chiqqan bo'lib, arab tilidagi "vadiy" (vodiy) so'ziga etimologik jihatdan yaqin. Bu nomning shakllanishida metateza (tovushlar o'rin almashuvi) hodisasi kuzatiladi. "Avdiya" shakli xalq talaffuzida "Avdene" ko'rinishiga o'tgan. Mazkur toponim semantik jihatdan "vodiya" qishloq" tushunchasini ifodalaydi.[5.102]

"Afshona" toponimi fonetik va etimologik jihatdan qadimiy shakllarni o'zida mujassam etgan. Aksari manbalarda bu so'z fors-tojik tilidagi "haft shona" (yetti tarmoqli) birikmasidan fonetik assimilyatsiya natijasida "Afshona" shakliga o'tgan deb talqin qilinadi. Bu nomning shakllanishida dissimilatsiya jarayoni kuzatiladi: "haft" → "af", "shona" esa o'z asl fonetik tarkibini saqlab qolgan. Semantik jihatdan suv tarmoqlari yoki irmoqlar bilan bog'liq hududni anglatadi. [2.56]

Sadir toponimi "Sadir" so'zi arab tilidagi "sadr" (ko'krak, old qism) so'zidan fonetik o'zgarish natijasida hosil bo'lgan. Geografik jihatdan hududning old tomonda yoki balandroq qismda joylashganini anglatadi. Bu nomning shakllanishida r undoshining saqlanib qolishi bilan semantik barqarorlik kuzatiladi.

Qo'ng'ontepa toponimi "qo'rg'on" va "tepa" so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan. Fonetik soddalashuv natijasida assimilyatsiya va eliziya jarayonlari yuz bergan: qo'rg'ontepa - qo'ng'ontepa. So'z tarkibidagi "r" undoshining tushib qolishi konsonantlarning fonetik moslashuvi natijasi hisoblanadi. Semantik jihatdan "qo'rg'onli tepalik" ma'nosini beradi.

"Chorobod" forscha "chor" (to'rt) va "obod" (ravnaq topgan joy) komponentlaridan tashkil topgan murakkab toponimdir. Bu joyda kompozitsion model asosida ikki ma'no birlashgan: "to'rt tarafdin obod joy" degan semantik mazmunga ega.

Kodravon atamasi tojik tilidagi "kord" (pichoq) va "ravon" (oqim, suv yo'li) komponentlaridan tashkil topgan. Bu nom semantik metafora asosida yaratilgan bo'lib, hududning shakli yoki suv yo'lining o'tkir, egri-bugri tuzilishini ifodalaydi. Shuningdek, kompozitsion toponim sifatida ikki so'zli struktura namunasidir. [6.45]

Peshko' tumani mikrotoponimlari o'zida uzoq tarixiy, etnik va madaniy qatlamlarni mujassam etgan bo'lib, ularning shakllanishida fonetik, morfologik hamda semantik jarayonlar uzviy tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu hudud toponimlari, ayniqsa, fors-tojik, arab va turkiy tillar o'zaro ta'sirida shakllanganligi bilan ajralib turadi. Bu holat o'tmishdagi til aloqalari, migratsion jarayonlar va etnik aralashuvlarning jonli til yodgorligi sifatida e'tirof etiladi. Peshko' mikrotoponimlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligi etnotoponim, gidronim va antroponim asosida vujudga kelgan. Ayrim nomlarda assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya, metateza kabi fonetik hodisalar kuzatilib, ular xalq talaffuzining tabiiy rivojlanishini aks ettiradi. Morfologik jihatdan esa "-tepa", "-obod", "-deh", "-cha", "-von" kabi affiksalar keng qo'llanib, makon va nisbat bildiruvchi toponimik morfemalar sifatida faol ishlatilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Halimov. T. Buxoro toponimikasi. Buxoro: Durdona, 2021. – 273 b.
2. Mahkamov. N Mahmudov. N, Odilov. O, Madvaliyev. A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston, 2021.

3. O'raev. S Toponimika. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – 318 b.
4. Qilichev. B Buxoro toponimlarida rabot komponentining o'rni. Til va adabiyot, 2023, №12. – B. 141–143.